

“TABASSUM IJODKORI” – NABI RAHIMOV*Fotima Ismoilova Izzat qizi**O'zDSMI "San'atshunoslik: sahna va ekran san'ati dramaturgiyasi"**3-bosqich talabasi +998945850306*

Annotatsiya: Mamlakatimizga yevropa tipidagi teatrning kirib kelishi XX asr boshlariga to'g'ri kelgan bo'lib, ushbu davrda ko'plab havaskor yoshlar unda faol bo'lishdi. Ular avvaliga havaskorlik guruhlarida o'qib, so'ng teatrqa qadam qo'yishdi. Ana shunday yoshlardan biri bu Nabi Rahimov edi. Quyida uning hayoti, ijod yo'li, u yaratgan bir necha o'nlab obrazlar, ularning o'ziga xosliklari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: truppa, aktyorlik mahorati, “Hamza” nomidagi teatr, rol, spektakl, obraz.

Nabijon maktabda ko'p o'qiy olmadi, oltinchi sinfligida otasi vafot etib, ustaxonada akasi yonida ishlashga to'g'ri keldi. Shu vaqtlarda o'zbek sovet dramaturgiyasi va teatrining asoschisi, iste'dodli san'atkor Hamza Hakimzoda Niyoziy Qo'qon shahrida o'z teatr truppasini tashkil etib, spektakllar ko'rsatardi. Bu tomoshalar Nabijonga juda ham yoqar, lekin bilet olishga uning hamma vaqt ham puli bo'lmas, ammo bir amallab kirib, tomoshalarni ko'rar edi. U teatrda ko'rganlarini ertasi kuniyoq mahalla bolalari oldida birma-bir ijro etib berardi. 1926-yilning yozida Qo'qon shahar Partiya klubi huzurida dramatik to'garak tashkil etildi. Unga a'zo bo'lib kirgan havaskorlar orasida Nabijon ham bor edi. To'garakka Qo'qondagi maktablardan birida o'qituvchi bo'lib ishlovchi K.Mirsatev rahbarlik qilardi. U birinchi bor Nabijonning qalbida teatrqa nisbatan muhabbat hislarini uyg'otgan edi. Nabijon to'garakda mashhur ozarbayjon kompozitori U.Gadjibekovning “Arshin mol olon” musiqali komediyasida Vali va Asqar, A.Fitratning “Abulfayzxon” pyesasida Karimboy kabi rollarni o'ynadi. 1929-yili to'garak a'zolari o'rtasida: “Samarqanddan mashhur qiziqchi artist Mirshohid Miroqilov kelibdi, teatrqa artistlar tanlab olarmish” degan xabar tarqaldi. Sinab ko'rish uchun mo'ljallangan bir guruh yoshlar orasida Nabi Rahimov ham bor edi. Ular hademay Samarqandga jo'nab ketishdi. Nihoyat, yoshlar uchun hayajonli dam – aktyorlik mahoratidan imtixon topshirish vaqti keldi. Navbat hayajonga tushib, o'zini yo'qotayozgan Nabijonga yetdi. U sahnaga chiqib o'zini bir oz tutib olgandan so'ng monolog, she'r o'qib berdi. Uning she'r o'qishidan zalda o'tirganlar juda mamnun bo'lishdi. Keyin komissiya a'zolari Nabijondan ashula aytib berishni iltimos qilishdi. Cholg'uchilar Nabijon so'ragan kuyni chala boshlashdi, lekin u o'zining sevib aytib yuradigan ashulasining so'zlarini tamom unutib qo'yganidan sahnada serryayib turar edi. Keyin u sahna orqasiga o'tib, ashula so'zlarini esladi. Sahnaga qaytib chiqqan edi, yana so'zlarini yo'qotib qo'ydi. Bu ahvol uch marta takrorlandi. Oxiri Nabijon ashulani bir

amallab aytib, sahnadan chiqib ketdi. Ammo, bu ko'ngilsiz hodisa uning kelajak taqdiriga ta'sir etmadi.

Nabi Rahimov Hamza nomidagi teatrga kelgan paytda ijodiy kollektiv boshidan murakkab davrni kechirayotgan edi. Garchi truppaning asosiy qismini tashkil etuvchi Mannon Uyg'ur, Yetim (Fozil) Bobojonov, Abror Hidoyatov, Sora Eshonto'rayeva, Zamira Hidoyatova, Sharif Qayumov kabi artistlar Moskvadagi o'zbek teatr studiyasini tamomlab kelgan bo'lsalar ham, lekin teatrnin ahvoli ancha og'ir edi. Buning bosh sabablaridan biri – o'sha paytda teatrdagi turli formalistik oqimlarning avj olganligi edi. Shu sababdan teatr repertuarida K.Yashinning "Ikki kommunist", Bill-Beloserkovskiyning "Po'rtana", D.Furmanov va S.Polivanovlarning "Bag'ovot" kabi realistik asarlari bilan bir qatorda V.Yanning "Hujum", Lope de Veganing "Qo'zibuloq qishlog'i" singari o'ta formalistik ruhda sahnaga qo'yilgan pyesalar ham bor edi. Bularning hammasi o'zbek artistlaridan, ayniqsa Nabi Rahimov singari teatrga to'g'ridan-to'g'ri havaskorlar to'garigidan kelgan yoshlardan o'z ustida ko'p mehnat qilishni, ijrochilik mahoratini tinmay oshirishni talab qilardi.

Daslabki paytlarda N.Rahimov epizodik rollarni ijro etib yurdi. V.Yanning "Hujum"idagi qishloq bolasi, K.Yashinning "Ikki kommunist" pyesasidagi O'roz qo'rboshi, Lope de Veganing "Qo'zibuloq qishlog'i"dagi Flores, Z.Saidov va N.Safarovlarning "Tarix tilga kirdi" pyesasidagi Rafiq rollari shular jumlasiga kiradi.

1934-yili Nabi Rahimov ketma-ket ikki obraz yaratib, aktyorlik mahoratining ancha o'sganligini ko'rsatdi. Bulardan birinchisi K.Goldonining "Musofirxona bekasi" komediyasidagi kavalier Rippofratta, ikkinchisi esa, N.Pogodinning "Mening do'stim" pyesasidagi Vaska rollari edi. Rejissor J.Obidov tomonidan sahnaga qo'yilgan "Musofirxona bekasi" spektaklida N.Rahimov o'z rolini qo'pol va behayo soldafon tarzida to'g'ri va hayotiy talqin etdi. Lekin ayrim sahnalarda, ayniqsa markiz Forliponnoli bilan uchrashgan sahnalarda tomoshabinni kuldirish uchun ortiqcha bachkana harakatlarga yo'l qo'ydi. "Mening do'stim" asari rejissor S.Vitt tomonidan formalistik hal etilgan bo'lsa-da, lekin unda N.Rahimov ijro etgan bebosh va bezori ishchi yigit Vaska roli bir qadar durust chiqqan realistik obrazlaridan biri edi.

O'ttizinchi yillarning ikkinchi yarmi N.Rahimov uchun tinimsiz mehnat qilish va jiddiy sinov davri bo'ldi. Bu davrda u shogirdlik muddatini muvaffaqiyatli tamomlab, sekin-asta peshqadam sahna ustasi darajasiga ko'tarila boshladi. Bu ijodiy yuksalish davrida ayrim nuqsonlar ham mavjud edi. N.Rahimov zamonaviy repertuarda ancha muvaffaqiyat qozonishiga qaramay Dobchinskiy va Kochkaryov kabi klassik obrazlarni yaratishda ba'zi muvaffaqiyatsizliklarga uchradi. Bu tasodif emas. Artist o'z zamondoshlarining obrazlarini yaratganda o'zining turmush tajribalaridan, kundalik hayotdan foydalanadi. Ammo klassik obrazlar ustida ishlaganda esa u faqat o'z aktyorlik fantaziyasi va hali to'la kamol topmagan ijodiy tajribasiga murojaat qiladi, xolos. Bunday hollarda uning maxsus aktyorlik maktabini o'tmaganligi sezilib qolardi.

Shuning uchun artist qunt bilan aktyorlik mahoratini o'rganishga kirishdi. N.Rahimovning aktyorlik mahoratini o'stirishda A.Hidoyatov, S.Eshonto'rayeva, Sh.Qayumovlar juda katta rol o'ynadilar. N.Rahimov repetitsiya va spektakllarda soatlar bo'yi huddi sehrlangandek o'tirib bu san'at ustalari mahoratini o'rganar, tushunmagan narsalarini so'rar va doimo ustozlaridan do'stona maslahatlar olar edi. Uning ijrochilik mahoratini o'stirishda Moskva safarlari ham yaxshi natijalar berdi. U 1930-yilda Hamza teatri bilan birgalikda milliy teatrlarning Butun Ittifoq Olimpiadasiga bordi. Aktyor bu safarda Moskva Badiiy teatri, Maliy va E.Vaxtangov teatrlarining mashhur sahna ustalari ijodi bilan tanishdi. Xmelyov, Moskvina, Yashin, Kuznesov uning eng sevimli artistlari bo'lib qoldi. Artist bundan tashqari o'sha yillari buyuk ingliz tragik aktyori Edmund Kinning ijodiga qiziqib, u haqda yozilgan ko'pgina kitoblarni o'qidi.

1935-yilda U.Shekspirning "Hamlet" tragediyasi asosida sahnalashtirilgan spektakl tomoshabinlar o'rtasida katta muvaffaqiyat qozondi va teatrning repertuaridan mustahkam o'rin oldi. N.Rahimov bu spektaklda dastlabki paytlari Rozenkrans, keyinchalik esa Laert rollarini o'ynadi. Bu davrda N.Rahimov tomonidan yaratilgan jiddiy obrazlardan yana biri A.Ostrovskiyning "Momaqaldiroq" dramasiidagi Tixon obrazi bo'ldi.

O'ttizinchi yillar oxirlariga kelib uning ijodida zamonaviy mavzuga nisbatan keskin burlish yuz berdi. "Pavel Grekov" spektaklidagi sotqin Sorokin obrazini ijro etarkan, ommani hushyorlikka va sergaklikka chaqirdi. Artist bu obraz ustida ishlarkan, e'tiborni ko'proq qahramonning ichki dunyosini ochishga qaratdi. Shuning uchun ham Sorokin – Rahimovning tashqi qiyofasida, xarakterlarida, yurish-turishlarida uning sotqinligini sezish juda qiyin. U hammaning e'tiborini o'ziga jalb qila oladigan, beozor va muloyim odamga o'xshaydi. Ana shuning uchun ham bu shaxs juda xavfli. Agar aktyor uni umuman xoin sifatida o'ynaganda, obrazga xos bo'lgan ko'pgina xususiyatlar ochilmasdan qolishi mumkin edi. Sorokin xoinligi oxirgi pardaga qadar ma'lum bo'lmaydi. Bu bilan aktyor sovet kishilarini juda ziyrak va xushyor bo'lishga chaqiradi.

Ikkinchi jahon urushi boshlangach, Nabi frontga jo'nadi. U qo'lga qurol olib, vatan ozodligi va mustaqilligi uchun qahramonona kurashga otlandi. Nabi Rahimov 1942-yili urushdan, yana o'z jonajon teatriga qaytib keldi. Uning urushdan qaytgandan keying birinchi roli Shekspirning "Otello" tragediyasidagi Yago bo'ldi. U insoniy tuyg'ularni, sevgini butunlay tan olmaydigan shaxsning yorqin obrazini yaratdi. Yago – Rahimov birinchi qaraganda sodda va muloyim, do'stlikning qadriga yetadigan, o'z generaliga sodiq kishidek tuyuladi. Undagi bu "oliyjanob" fazilatlar tomoshabinlarda avvaliga hech qanday shubha tug'dirmaydi. Bora-bora bu qalbaki kulgilar, xatti-harakatlar uning haqiqiy yuzini yashirishga ojizlik qilib qoladi. Yago hammani o'z qarichi bilan o'lchaydi. Uning o'zi tuban, iflos, axloqsiz odam bo'lgani uchun hamma odamlar ham shunday bo'lishi kerak, binobarin, oliyjanoblik niqobi ostida mug'ombirlik qilib yurishning hech hojati yo'q, deb o'ylaydi. Shuning uchun hammani

qoralash va pastga uradi. Ammo Yago o'zi pastkashligini sodiqlik va rostgo'ylik niqobi ostiga yashiradi. Ana shu sababdan Otello doim "Sadoqatli Yago!", "Mening sadoqatli do'stim!" deb qayta-qayta takrorlaydi.

1944-yilda teatr A.Ostrovskiyning "Sepsiz qiz" dramasini sahnaga qo'ydi. E.A.Montov tomonidan sahnalashtirilgan bu spektaklni kollektivning yutug'i deb bo'lmaydi. 1946-yil 18-fevralda rus klassik pyesalarining ko'rigiga bag'ishlangan ijodiy konfrensiyada bu postanovka haqida "Spektaklni rejissor ikkinchi darajali teatrlarda qo'yiladigan tarzda hal etgan...Uning ba'zi bir ortiqcha detallaridan voz kechish ham mumkin..." deyilgan edi. Bu spektaklda Karandishev rolini ijro etgan N.Rahimov ham muvaffaqiyatsizlikka uchrab, dramaturgning maqsadiga tamoman zid keladigan obraz yaratdi. Aktyorning bu roldagi muvaffaqiyatsizligi uning ijrochilik san'atiga emas, balki obrazni hukm suruvchi zulmga qarshi chiquvchi shaxs sifatida talqin qilishi bilan bog'liq. N.Rahimov har bir obraz orqali kishilardagi oliyjanoblikni ko'rsatishga intiladigan va adolatsizlikka, haqsizlikka qarshi isyon ko'taradigan aktyor. Shuning uchun ham u Karandishev obrazidagi shaxsiy norozilik ohanglarini jamiyatga qarshi isyon deb tushungan. Bu o'rinda artist ijodining isyonkor xarakteri spektakl va mazkur obraz foydasiga ishlay olmagan. Bu ishda unga rejissor ham yordam berolmagan.

Urushdan keyingi yillarda teatr sovet ittifoqidagi eng kuchli ijodiy kollektivlardan biriga aylandi. Uning artistlari esa O'zbekistondan tashqariga ham tanilgan mashhur san'at ustalari bo'lib yetishdilar. 1947-yilda iste'dodli rejissor A.O.Ginzburg tomonidan sahnaga qo'yilgan "Dengizdagilar sharafiga" spektakli zamonaviy ruhda yozilgan bo'lib, sovet kishilarining mustahkam do'stligi, bukilmas irodasi, jasorati va ma'naviy boyliklari haqida hikoya qiladi. N.Rahimov spektaklda Borovski rolini ijro etdi. Bu obraz – uning ijodida muhim bir voqea bo'ldi. Urushning og'ir kunlarida sovet kishilari tomonidan ko'rsatilgan g'ayrat va qahramonliklar haqidagi bu spektaklni teatr kuchli dramatik hikoya tarzida hal etdi. Undagi o'z ona vatanining haqiqiy farzandlari bo'lgan kamtarin va dovyurak qahramonlar sovet kishilariga xos go'zal va oliyjanob xislatlarga ega. Ular axil oila a'zolaridek bir tan, bir jon bo'lib harakat qilishadi. Ammo shu mustahkam, jips, ahil oilada, o'z yutuqlaridan esankirab qolgan yosh shaxsiyatparast ofitser Aleksandr Borovski ham bor. Pyesadagi voqealar ham shular asosiga qurilgan. Rahimov ijrosida shukuhli dengiz ofitseri Borovski juda go'zal, jozibali bo'lib chiqqan. Unda romantika juda kuchli, u har qanday xavf-xatarga qarshi borishga tayyor turgan g'ayratli va jasoratli ofitser. U eng murakkab harbiy operatsiyalarni ham bajara oladi va bajargan ham. U qobiliyatli komandir, dovyurak, dadil odam. Lekin bu fazilatlar mansab uchun, pogonida yana bir yulduzchani orttirish uchungina ishlatilar edi. Aktyor qaddiqomati kelishgan bu yosh ofitserni sovet kishisi sifatida, ammo ma'naviy jihatdan bo'sh bo'lgan, shuhratparast, amalparast shaxs tarzida to'g'ri hal qilgan.

1946-yilda sahnalashtirilgan “Muhabbat” spektaklida N.Rahimov Yetov rolini o’ynadi. Aktyor bu obraz orqali agar odamlarga tegishlicha e’tibor berilsa, ehtiyotlik bilan tarbiyalansa va ularga yo’l qo’ygan xatolarini tushuntirilsa, yo’ldan adashgan kishilarni ham tuzatish va to’g’ri yo’lga solish mumkin degan fikrni o’rtaga tashlaydi. Tuyg’unning “Muhabbat” komediyasi urushdan keyingi O’zbekiston kolxozlari hayotidan olib yozilgan birinchi dramatik asar bo’lib, bunda paxta dalalarida qahramonona mehnat qilayotgan oddiy, kamtar zamondoshlarimiz haqida hikoya qilinadi. Frontdan qaytgan ba’zi kishilar urushda ko’rsatgan xizmatlari va olgan mukofotlari bilan mag’rurlanib, o’z hamqishloqlari va kollektivdan ajralib qolganlar. Bu “yutuqlardan esankirash”ning o’zginasi edi. Ular xalqimizning urushdan keyingi fidokorona mehnatiga ko’z yumib qarab, biz vatan oldidagi o’z burchimizni oqladik, endi “yallo” qilib yurishga huquqimiz bor deb, qo’llarini sovuq suvga ham urgilari kelmasdi. Yetov ham huddi ana shundaylardan edi. Yetov aktyorning zamondoshi. Urushda qatnashgan artistga bu soldatning obrazi juda ham yaqin. Yetov obrazini yaratishda Nabi Rahimov urush yillari va urushdan so’nggi yillardagi taassurotlaridan foydalandi. Bu spektaklning muvaffaqiyatli chiqishida N.Rahimov va O.Xo’jayev tomonidan katta mahorat bilan ijro etilgan Yetov roli sababchi bo’ldi, deb o’z vaqtida “Qizil O’zbekiston” gazetasida ham qayd qilingan edi.

Nabi Rahimov ijodining yana bir ezgu xususiyati shundaki, u epizodik rollarda ham katta mahorat bilan o’ynayveradi. Chunki aktyor uchun “katta”, “kichik” rollar yo’q. N.Rahimov ijrosidagi bu rollarni ko’rib, tomoshabin obrazlarning butun tarjimai holini bilib oladi. Shuning uchun ham K.S.Stanislavskiy “Kichkina rollar bo’lmaydi, faqat kichkina aktyorlar bo’ladi” degan edi. Oybekning “Qutlug’ qon” romani asosida ishlangan inssenirovkadagi Shokir ota obrazi Nabi Rahimov ijro etgan ana shunday epizodik rollar jumlasiga kiradi.

N.Rahimov o’z nutqi ustida doimiy tarzda shug’ullanib borgan. Uning rollarida birorta so’z ham “yo’qolib ketmaydi”. Uning ustozlari M.Uyg’ur va Y.Bobojonov aktyorning so’z madaniyatini oshirish masalasiga alohida e’tibor berar edilar. Ular bu sohada shogirdlari N.Rahimovga ham ko’p yordam berdilar hamda uni doimiy suratda o’z ustida ishlashga o’rgatdilar. Aniq talaffuzga o’rganish uchun u turli mashqlar o’tkazar va kitoblarni baland ovoz bilan o’qir edi. Ovoz chiqarib o’qiganda u o’z-o’zini tekshirib borardi. N.Rahimov keyingi yillarda nutqini magnitofonga yozib tekshiradigan bo’ldi. O’zbek teatr san’ati ustalari ichida N.Rahimov eng yaxshi sahna nutqiga ega bo’lgan aktyorlardan biridir.

1947-yili sahnaga qo’yilgan “Rus masalasi” (K.Simonov asari) spektaklida aktyor ma’naviy buzilgan Xardi rolini ijro etadi. Ammo bunda Xardini ayblash va uning jirkanchli basharasini fosh qilish bilan birga artist Amerika magnatlariga, shunday yaramas odamlarni dunyoga keltiradigan kapitalistik tuzumga qarshi nafrat o’qiydi. N.Rahimov qo’rqoqlik va irodasizlik odamni naqadar chuqur ruhiy tushkunlikka olib

borishini Xardi obrazi orqali ishonarli qilib ko'rsatadi. N.Rahimovning "Djon – tinchlik soldati" (1951- yilda sahnalashtirilgan) spektaklidagi Stiv Emeri roli to'g'risida matbuot bayon etgan fikr Xardi obraziga ham to'g'ri keladi: maqolada "...Aktyor Stiv fojiasi ijtimoiy haqsizlik natijasida tug'ilganini ishontirarli va aniq ko'rsatadi. N.Rahimovning haqqoniy va iste'dodli ijrosida Stiv Emeri obrazi dollar Amerikasini qahru g'azab bilan fosh qiladi. Xardi ham, Emeri ham Amerika zulmidan ezilgan odamlar, lekin Xardi tengsizlikka qarshi kurashda qo'rqqoligi tufayli reaksionerlar qo'lida o'yinchoq bo'lib qolgan bo'lsa, Stiv ular bilan kurashda g'olib chiqadi. Mazkur maqola muallifi davom etib yozadi: "Nabi Rahimov o'z qahramonining ruhiy holatini ortiqcha melodramatizmga berilmay ko'rsatadi. U xotinidan g'azablanarkan, uni jerkarkan oxiri undan kechirim ham so'raydi... Ammo o'zining ishsiz qolishi va oilasining yarim och holda kun kechirishga majbur ekanligi esiga tushib, Stiv yana o'zgarib qoladi. o'zining hayotdan chetga chiqarib tashlangani esiga tushmasin uchun, pul topish uchun hozir o'zini o'tga desa o'tga, cho'g'ga desa cho'g'ga urishga tayyor.

Stiv rolidan keyin Nabi Rahimov sovet davlatining ashaddiy dushmanlari Bem (V.Bragin va G.Tovstonogov – "Mangu hayot") va Grozniy (K.Trenev – "Lyubov Yarovaya") rollarini o'ynadi. Bu rollarda aktyor o'z qahramonlarini ayovsiz fosh qiladi va ularning qabih, jirkanch, qora yuraklarini ko'rsatib beradi. Grozniy hiylakor, qo'rqqoq va qabih odam; u "o'tsiz tangaga" hamma narsani, hattoki vatanini ham sotib yuborishi mumkin. Bem esa Gestapo ofitseri, sovet davlatining g'oyaviy dushmani. Uning kommunistlarni ham, kommunizmni ham ko'rishga ko'zi yo'q. Restoran ko'rinishida Bemning qiyofasi, ichki dunyosi yanada oydinlashadi. Bu ko'rinish tinchlik lageri bilan fashizm lageri vakillarining yakkama-yakka kurashini tasvirlaydi. Bu jangda grajdanlik huquqidan mahrum qilingan mahbus Yulius Fuchik taqdirini "hal qiluvchi gestapochi Bem kapitalizmning vakili sifatida halokatga mahkum etiladi.

Taniqli aktyor Zikir Muhammadjonov o'zining " Qalbdagi o'chmas izlar" kitobida Nabi Rahimov haqida shunday yozadi: "Muhtaram aktyorimiz ham ijobiy, ham salbiy obrazlarni qoyil qilib yaratuvchi zargardir. "Otello"dagi Yago, "Revizor"dagi Xlestakov obrazlari bunga misol bo'la oladi. Nabi Rahimov Xlestakov obrazini yaratish, uning murakkab xarakterini ochish uchun rang-barang bo'yoqlar qidiradi. U Xlestakov qiyofasiga osonlikcha kira olmagan. Aktyor buning uchun necha-necha tunlarni tongga ulab izlangan, qidirgan, mashq va mutolaa qilgan. Muallifning asosiy maqsadi nimaga qaratilganligini chuqur his etib, faqat mehnat qilish tufayligina o'z orzusini ro'yobga chiqara olgan. Parda ochilganda sahnada paydo bo'lgan Xlestakovning usti yaltiroq ichi qaltiroq, o'ta ketgan aldoqchi, maqtanchoq odam ekanligi darhol ma'lum bo'ladi. U shahar hokimiga (bu rolni Shukur Burxonov ijro etgan) duch kelar ekan, o'zini yo'qotib qo'yadi, lekin sir boy bermaslik uchun jazavaga tushib, qo'rqqoq oldin musht ko'tarar qabilida ish ko'radi. Shu sahna ikki ulkan aktyor ishtirokida juda chiroyli, esda qolarli

chiqqan. Ularning holatidan tomoshabinlar qotib-qotib kuladi, ijrochilar mahoratiga qoyil qoladi.

Abdulla Qahhorning “Shohi so’zana” pyesasidagi ijobiy qahramon Qo’ziyev obrazini o’zbek sahnasida birinchi bo’lib Nabi Rahimov yaratgan. Bu obraz o’z xarakteri, mehnatsevarligi, o’z kasbiga mehru sadoqati, hushchaqchaqligi, o’z sevgilisiga vafodorligi, xullas hayotga tashnaligi bilan ajralib turadi. Qo’ziyev yaqindagina frontdan qaytgan, hali u soldatlik gimnastyorkasini ham yechmagan. Mehnatga chanqoq bu jangchi yigit Mirzacho’lni o’zlashtirishga bel bog’laydi. U qurilish brigadasiga boshchilik qiladi. Bu tirishqoq yigit jang maydonida qanday jasorat ko’rsatgan bo’lsa, cho’lga ham shunday shiddatli hujum boshlaydi. Shu yerda Saltanatni sevib qoladi. Ular mehnat maydonida o’z baxtlarini topadilar. N.Rahimov zamonamiz yoshlarining vakili Qo’ziyev obrazini yaratib, sahnadagi hayot yo’lini yana bir ajoyib durdona bilan bezadi.

Ustoz san’atkor, dramaturg Uyg’urning “Parvoz” pyesasidagi bosh qahramon – rais Mamasoliyev obrazini yaratdi. Bu juda murakkab obraz. U qator ordenlarga ega, raykom a’zosi, viloyatda nom qozongan rais, deputat. Hatto qahramonlikka ham tavsiya etilgan. Bunday shuhratga u halol mehnat bilan emas, ming xil nayranglar bilan erishgan. Mamasoliyev o’z mavqeyini saqlab qolish uhcun hech narsadan qaytmaydi. Turli yo’llar bilan ayrim rahbar hodimlarni o’ziga gumashta qilib olgan bo’lsa ham, haqiqatchi raykom sekretari Hurriyatning odilona qarashlari oldida lol qoladi, xalq hukmiga duchor bo’ladi. Ko’p qirrali Mamasoliyev obrazi usta san’atkor Nabi Rahimov talqinida juda ishonarli, qiyomiga yetgan, yorqin obrazlardan biriga aylandi. Mamasoliyev obrazi Qo’ziyevdan butunlay farq qiladi. Biri ijobiy, biri salbiy qahramon. Ulug’ rus aktyori M.P.Xmelev o’zi yaratgan obrazlarga yo advokat, yo prokuror bo’lib yondoshar edi. Nabi Rahimov ham huddi har bir obraz xarakterini Xmelev singari tomoshabinga yetkaza oladigan aktyordir. Sevimli aktyorimiz o’z ijodiy faoliyati davomida yuzdan ortiq obraz yaratgan. Shularning yarmi klassik, yarmi esa zamonaviy qahramonlardir. Nabi Rahimov zamon ruhi bilan nafas oluvchi, o’zini har doim sahnada his etuvchi hozirjavob, xalqimiz xizmatiga shay turgan aktyordir, u bekordan-bekorga sahnaga chiqmaydi. Hayotimizda qanday yangilik sodir bo’lsa, shu haqda sahnadan turib odamlarga jar solsam, deydi. Jamiyatimiz taraqqiyotiga nimalar to’sqinlik qilsa, shunga darhol zarba bersam deydi. Urushgacha bo’lgan besh yilliklar, urush yillari va tinch qurilish davrlarida yaratgan obrazlarning hammasi hayot taqozosi bilan dunyoga kelgandir. Nabi Rahimov haqiqatni odamlarning yuziga aytishni yaxshi ko’rardi. U ayyorlik, g’alamislik qilgan kishini yomon ko’rardi. Nabi Rahmonovning hovlisi anhor bo’yidagi sobiq Abdulla To’qay ko’chasida bo’lgan. Shu ko’chadan Qizil maydon (hozirgi Mustaqillik maydoni) ga kirib borilardi. U vaqtlarda 7-noyabr bayrami nihoyatda katta bo’lar, armiya qismlaridan tashqari, Toshkentning tuman vakillari ham parad bo’lib o’tardi. Namoyishchilar shu qadar ko’p bo’lar ediki, o’sha maydondan

o'tilguncha Abdulla To'qay ko'chasida soatlab tirband turib qolinar edi. Shunda biz, namoyishga chiqqan teatr ahli uning uyiga yopirilib kirar edik. Bir safar, ertaga bayram degan kuni qarasam, teatrdagi e'lon osilib turibdi. Unda "Men 7 noyabrda tug'ilganman. Kirib tabrikلامoqchi bo'lganlar sovg'asi bilan kelaversin. Nabi Rahmonov" deb yozib qo'yilibdi. U kishi ana shunday hazillarni ham yaxshi ko'rardi. Lekin baribir, 7-noyabr u kishining tug'ilgan kuni bo'lib qoldi. U kishining tug'ilgan kuni o'sha paytgacha noma'lum edi. Chunki Nabi aka tug'ilgan yillari o'zbek oilalarida ota-onalar o'z farzandlari uchun guvohnoma olishni o'ylab ko'rmas edilar. Mening o'zim ham tug'ilgan kunimni 1-yanvar qilib olganman. Chunki onam "Seni qahraton qishda tuqqanman, kim biladi" u dekabr bo'lganmi, yo yanvar bo'lganmi?" – derdilar. San'atning boshqa sohalardan farqi shundaki, undagi ijod turli mulohazalarga uchrashi mumkin. San'atkor qilayotgan ishini aytilgan har bir fikrga qarab o'zgartiraversa, oqibati yaxshi bo'lib chiqmasligi ham mumkin. Lekin men hayoti va ijodi haqida fikr yuritganim Nabi Rahimov faqat ijod masalasida emas, hayotdagi nuqsonlarni aytishda ham keskin bo'lganini eslayman. Kunlardan bir kun u o'zi bilan tengqur bir kasbdoshining nuqsonini basharasiga aytdi-qo'ydi. Biz o'shanda kosa-kosa qilib kesilgan katta bir qovunni mazza qilib yeyayotgan edik. Nabi akaning so'zi kasbdoshiga yoqmadi shekilli, "tilingni ari chiqsin", deb qo'ydi. Tasodifni qarangki, qovunni yeb bo'lmasimizdanoq, Nabi akaning tilini ari chaqib, gapira olmay qolsa bo'ladimi. Ertasigayoq u kishi o'zi yana bir qovun keltirib, bizga tilimlab berdi-da: "Kecha sizlarni qovun yeganday qilmadim, mana endi to'yib olinglar", – dedi. Shunda kimdir: "Tilingni shirin bo'lib qolibdimi?" desa, "Ha, meni bolalari chaqqan ekan", dedi. Shunda kimdir: "Biz ham hayron bo'lovdik. Odatda arilar sendan zapravka qilardi-ku", dedi. Xullas, ari mavzusi askiya bo'lib, rosa kulishgan edik. Nabi aka bor joyda nuqul kulgi bo'lar edi. O'zi ham ulfatchilikni nihoyatda yoqtiradigan odam bo'lgan. Bo'sh qoldi deguncha vodiya jo'nar edi. Men u kishi uyiga ko'p turganini bilmayman. U kishi chinakam xalqchil odam bo'lib, teatrdagi ham, kinoda ham eng ko'p rol ijro etgan aktyorlardan edi. Bir vaqtlar u radioda "Tabassum" eshittirishini o'zi tashkil etgan chamamda. Shu eshittirishning bosh qahramoni Nabi aka edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I. Ilyalova "Nabi Rahimov"
2. T. Bayandiyev, M.Ahmadjonova "Asrga tengdosh teatr"
3. Zikir Muhammadjonov "Qalbdagi o'chmas izlar"